

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI
YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2023-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF
PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”

International scientific and practical online conference

(June 15, 2023 y)

MATERIALS

«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2023 г)

МАТЕРИАЛЫ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA
UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2023-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

**“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF
PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”**

International scientific and practical online conference

(June 15, 2023 y)

MATERIALS

**«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»**

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2023 г)

МАТЕРИАЛЫ

JIZZAX – 2023

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to'g'risida o'tkazilgan majlisning 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida 2023-yil 15-iyun kuni "Pedagogik ta'lim, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur konferensiyaning tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta'lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muvaffaqiyatli qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

Tahrir hay'ati:	
A.Sh.Xolmurodov	Jizzax viloyati PYMO-MM direktori, p.f.d., (DSc)
Sh.D.Abdurashidov	Jizzax viloyati PYMO-MM direktor o'rinbosari
J.A.Mardonqulov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
A.Meliboyev	"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent
Sh.Haydarov	"Tillarni o'qitish va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini dotsenti p.f.n.
M.Tilakova	"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
P.Xolmatov	"Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri p.f.n., dotsent
D.K.Norbekov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
M.M.Xolboyeva	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
T.Sh.Avazov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
O.U.Ergashev	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
Sh.A.Egamqulov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
M.M.Jabborov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
B.N.Qodirov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
F.M.Alimov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 19-iyundagi navbatdan tashqari yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

**“Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani
Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, konferensiya ishtirokchilari!**

Barchamizga yaxshi ma’lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotgani dunyo e’tiborini jalb etmoqda.

Buning yaqqol dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabr kuni Prezidentlik lavozimiga kirishish va qasamyod qabul qilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda, Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida ta’lim sohasiga alohida to‘xtalib o‘tdi hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, kelgusida qabul qilinadigan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 yo‘nalishdan iborat bo‘lib, to‘rtinchi yo‘nalish, ya’ni, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta’lim-tarbiya masalasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta’lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorining xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi roli beqiyosdir. Ushbu qaror asosida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tayyorlanib, ishga tushirilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” elektron platformasi xalq ta’limi xodimlarining uzluksiz malaka oshirib borishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyamizda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan sohadagi yetakchi olimlar, professor-o‘qituvchilar, shuningdek, bir qator xorijiy davlatlardan yetuk olimlar, fan doktorlari o‘zlarining ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishmoqda. Biz barcha ishtirokchilarga, jumladan, Germaniyadan professor Kuchukov Xristo, Hindistondan falsafa fanlari doktorlari Prakash Babu, Kasimova Adiba Begaliyevna, Dxananjay Rao, doktor Djatotu Naresh, Qirg‘izistondan professor Dushyev Jenishbek Amatisakovich, Rossiya Federatsiyasidan professor Ushakova Oksana Semenovna, professor Yashina Valentina Ivanovna, dotsent Shabayeva Guzel Fagimovna, Pilipenko Yelena Aleksandrovna, professor A.M. Gareev, dotsent A.A.Budanovna, **Kalinin Viktor Andreevich** va pedagogika fanlari doktori, akademik Rixsiboy Xaydarovich Djurayev, pedagogika fanlari doktori, professor Safarova Roxatoy Gaybullayevna hamda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilarga konferensiyadagi ishtiroklari uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Bu jarayonda biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhimdir.

Aziz do'stlar!

Yangi O'zbekistonni qurishda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga qaratilgan ishlari har bir pedagog xodimni ruhlantirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi" shiori buning yaqqol tasdig'idir.

Ishonchim komilki, bugungi "Pedagogik ta'lim, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirokchilar tomonidan bildiriladigan fikr va mulohazalar, takliflar kelgusida ta'lim sohasining rivojlanishiga, takomillashishiga xizmat qiladi.

So'zimning yakunida, konferensiyaning barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyat tilayman. E'tiboringiz uchun minnatdorchilik bildiraman!

*Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori
Xolmurodov A'zam Shaxriyorovich*

6. Omandovlat o'g'li, J. I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI". Maktab va hayot MAXSUS SON, 2.
7. Махмудов, М. Ж. (2020). Талабаларнинг манзара ишлаш жараёнидаги баъзи муаммолар. Academic research in educational sciences, (2), 361-369.
8. Abdumajitov, A. S. (2023). DEVELOPMENT OF LANDSCAPE GENRE IN NATIONAL PAINTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 469-476.
9. Shuhratovich, IU (2020). Innovatsiyalarni o'qitish jarayonida qo'llash. Ta'lim fanlari bo'yicha Evropa tadqiqot va mulohaza jurnali , 8 (5), 4-8.
10. Toyir o'g'li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). Journal of new century innovations, 27(4), 113-117.
11. Bozorov, F. va Baymetov, BB (2023). OLIY PEDAGOGIK TA'LIM TALABLARI UCHUN GURUH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TASVIRIY SANAT NATURMAT JANRIDAN FOYDALANISH. Yevropa xalqaro pedagogika jurnali , 3 (04), 5-12.
12. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 261-267.
13. Eralievich, S. K., Mukhamatsultonovna, M. I., Saidazimovich, B. I., & Turgunovich, A. R. (2020). The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6586-6591.
14. Baymetov, B. B., & Muratov, X. X. (2021). Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarida talabalarning tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari. Science and Education, 2(1), 349-356.

CHIZMACHILIK FANLARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING IDROK QILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH.

Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası o'qituvchisi.

jumayev@cspi.uz +998909022793

Annotatsiya. Mazkur maqolada Chizmachilik fanini didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarga o'qitishda dars samaradorligini oshirish.

Kalit so'zlar: Metodik, chiziq, ko'nikma, ko'rinish, trafaretlar, idrok, didaktik, fazoviy, tafakkur, yaqqol, model.

O'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish masalalarining asosini o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish tashkil qiladi. O'quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantirish intellektual, axloqiy erkinlik, jismoniy kuchlarini o'z faoliyatidagi aniq talablarini qondirishga yo'llaydi. Faollikning o'zi inson faoliyatini aniqlaydi.

O'quvchilarning idrok qilish faolligini oshirish tamoyilining didaktik konsepsiyalari yangi masalalarni ishlab chiqish va uni yechish yo'llarini aniqlash, uni joriy qilish omillari bilan bog'liq. Shunga ko'ra o'quvchilarning idrok qilish qobiliyatini faollashtirishning didaktik omillari konsepsiyasini chizmachilikdan o'tkaziladigan didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o'yinlarning mazmuni va uni o'tkazish shakllarini takomillashtirish yo'li yordamida idrok qilish faoliyatini rivojlantirishga ko'rsatayotgan ta'sirini o'rganish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan o'qitish uslublarini yangitdan ishlab chiqish mumkin. Bayon

qilingan maqsad va takliflarni amalga oshirish uchun qator xususiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Masalan:

1. didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini asoslab berish;
2. o'quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirish uchun o'yin mazmuni va shakllarini takomillashtirish metodlarini aniqlash;
3. o'quvchilarning idrok qilish faolligini oshiradigan jarayonlarda o'quvchining tipik qiynalishi faoliyatini ochib berish;
4. o'quvchining idrok qilish faolligini oshiradigan sharoitlarni o'yinlar orqali aniqlash va o'rganish;
5. o'yinlar davrida qo'yilgan maqsad va vazifalarni aniqlab o'rganilgandan so'ng o'quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirishga bo'lgan didaktik talablarni ishlab chiqish;
6. aniqlangan yutuq va kamchiliklarni o'rganib, kamchiliklarni bartaraf qiladigan metodik ishlanmalar yaratish hamda yutuqlarga nazariy model tuzish.

O'rta tashlanayotgan didaktik o'yinlarning yutug'i shundan iboratki, har bir qo'yilgan savolga beriladigan javob shaxsning individual fikr yuritish va tasavvur qilishga majbur qilishdir.

Didaktik o'yinlar jarayonida shaxsning mustaqil fikr yuritishga, mulohaza qilishga, taqqoslashga o'rgata olinsa fazoviy tafakkur qilish qobiliyati yanada o'sadi. Shunda o'quvchilarning boshqa fanlarni ham yuqori saviyada o'zlashtirishiga imkon yaratilgan bo'ladi, ya'ni

- o'quvchilarda yangi bilimlar olishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirishga erishiladi;
- o'quv axborotlarni o'zlashtirishda umumiy va xususiy ko'rinishlardagi masalalarni yechishda ijodiy fikrlashga olib kelinadi;
- olgan bilim va ko'nikmalarni yangi sharoitga moslashtirishga o'rgatiladi;
- har bir o'quvchining idrok qilish qobiliyatini faoliyatiga maksimal sharoit yaratilgan bo'ladi.

Teshiklarga mos detalni tanlay olasizmi?


Bu o'yin har xil teshiklarga mos keladigan detalni to'g'ri tanlashga bag'ishlanadi. *1-rasm*

O'yinning maqsadi. O'quvchilarga detalning aslini yoki yaqqol tasvirini uning shartli ko'rinishlari orqali idrok qilishga tez fursatta solishtirishi, topqirlik va fikr yuritish, jismni tahlil qilish kabi fazilatlarini tarbiyalash.

Darsni jihozlash. Sinfda hammaga bimalol, hammaga ko'rinadigan kattalikdagi bir nechta geometrik jism, soddaroq detalning modellari yoki ularning tasvirlari. Shu geometrik bo'yicha hosil qilingan teshiklar, ya'ni trafaretlar.

O'yinning borishi. O'qituvchi detallardan birini qo'lga olib trafaretlardan biridagi teshiklarga navbati bilan uni o'tkazib ko'rsatadi. So'ngra trafaretdan birini sinf taxtasiga ilib qo'yadida shu teshiklardan o'tadigan detalni toping va o'tkazing degan savolni o'rta tashlaydi. O'quvchilar navbati bilan chiqib javob topadilar.

O'yinga yakun yasash. Birinchi harakatdayoq qisqa vaqtda to'g'ri javob topgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni o'tkazishdan oldin konus, silindr kabi geometrik jismlar uchun yasalgan teshiklarni proyeksion bog'lanishlarda tayyorlab mashq o'tkazish tavsiya etiladi.




Soddaroq detallar bilan ham shunday mashqlar o'tkazilgandan keyin o'yin uchun tanlangan detallarga tayyorlanadigan teshiklarni bir qatorga joylashtirish mumkin.

Kim tez tiklay oladi?

Bu o'yin chizmaning biror joyiga suv to'kilib, uni o'qish qiyinlashsa yoki biror joyi yirtilib ketsa, biror sababga ko'ra hiralashib qolgan bo'lsa chizmalarning o'sha joylarini tiklab o'qishga mo'ljallangan.

O'yinning maqsadi. O'quvchilarni chizmalarni o'qish va ularni tiklashga o'rgatish. Chizmalarda uchrab turadigan kamchiliklarni bartaraf qilishga, ularni diqqat bilan o'rganishga va geometrik sirlarni tahlil qilish qobiliyatini o'stirish.

O'yinni jihozlash. Barcha o'quvchilarga bemalol ko'rinadigan kattalikda bajarilgan plakatlar. Plakat chizmaning bittasida faqat geometrik sirtlar ko'rinishlarida biror qismlar chizilmaydi. Ikkinchi plakatda detal ko'rinishlarida ham biror joylari chizilmagan bo'ladi.



2-rasm

O'yinning borishi. Bu o'yinni o'tkazishdan oldin o'quvchilar bilan oddiy geometrik sirlarni chizmada tasvirlanishi to'g'risida mash o'tkazish tavsiya etiladi. Silindr, konus, shar, prizma, piramida, parallelepiped kabi geometrik sirlarning ko'rinishlari to'liq chiziladi va bir parcha qog'oz olib, shu sirlarning ko'rinishlarini u yoki bu joyga qo'yib, chizmaga suv to'kilgan yoki o'sha joyi yirtilib ketgan deb faraz qilinadi. So'ngra o'quvchilardan chizmaning o'sha joylarini qanday qilib tiklash mumkinligi so'raladi. Keyin ikkita uchta geometrik sirlarning yig'indisidan tuzilgan detal chizmasidan ham qog'oz bo'lakchasini qo'yib yuqorida qayd qilingan misol takrorlanadi. Geometrik sirtlar qo'shilgan joylarga qog'oz parchasi qo'yilsa bir yo'la ikkita geometrik sirt qismini tiklashga to'g'ri keladi. Endi boshqa misolda detal ko'rinishlarining u yoki bu joylariga qog'oz parchasi bilan to'sib o'sha joylarini tiklash taklif qilinadi. O'quvchilar chizmalarni tiklashga qiyinalishsalar u vaqtda qisqa muddatga qog'oz parchalari olib qo'yiladi.

O'yinning yakuni. Chizmalarni tiklashda faol qatnashga va aniq javob bergan o'quvchilar g'oliblar deb e'lon qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Raxmonov "Chizmalarni chizish va o'qish" "O'qituvchi" 1992y.
2. I.Raxmonov "Chizmachilikdan didaktik o'yinlar" "O'qituvchi" 1993y.

3. Pulat Adilov,. Isroil Jumaev,. (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing. *Eastern European Scientific Journal* (ISSN 2199-7977), 102-104.
4. Omandovlat o'g'li, J. I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O'LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO'LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.". MUFAJLIM XOM YZLIKSIJZ BILIMLENDIRIY № 3-2, 99-101.
5. Omandovlat o'g'li, J. I. (2021) CHIZMALARNI AUTOCAD DASTURIDA CHIZISHDA DASTURNING MAVJUD MURAKKABLIKLARINI QO'LD A CHIZISHGA MOSLASHTIRISH (O'RGATISH) USULLARI.". MUFAJLIM XOM YZLIKSIJZ BILIMLENDIRIY № 3-2, 94-99.
6. Муродов, Ш. К., Жумаев, И. О. (2019). ЛОЙИХАЛАШ ИШЛАРИДА КЎПЁҚЛИКЛАРНИ ЎРГАНИШГА БЎЛГАН ЗАРУРИЯТ ҲАҚИДА. “ФАРФОНА ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ “ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА МУСИҚА ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ” мавзусида республика илмий - амалий анжумани М А Т Е Р И А Л Л А Р И”, 26-29.
7. ugli Jumayev, I. O. (2022). USING THE MOST CONVENIENT METHOD OF FINDING EQUAL SIDED POLYGONS (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1271-1279.
8. Omandovlat o'g'li, J. I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI.". *Maktab va hayot MAXSUS SON*, 2.
9. Norboy o'g'li, A. N., & Shaydulloyevich, B. Q. Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li & Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 151-153.
10. Jumayev, I. (2020). The conveniences of teaching using autocad software. *Экономика и социум*, (10 (77)), 94-97.
11. Jumayev I.O. (2021). CHIZMACHILIK DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 798-808.
12. Jumayev, I. O. (2021). CHIZMACHILIK FANINING PROYEKSION CHIZMACHILIK BO'LIMIDA AUTOCAD DASTURINING UCH O'LCHAMLI IMKONIYATLARINI QO'LLASH VA UNING AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 809-814.

TARIX FANINI O'QITISHDA ISHCHI DAFTARLARDAN FOYDALANISH

Eshbekova Dilafro`z To`ychiyevna
JDPU Umumiy tarix kafedrası o`qituvchisi

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются роль и место рабочей тетради в повышении эффективности учебного процесса. Была проанализирована структура, типы и значение рабочей тетради, которая является многофункциональным дидактическим средством. Рабочие тетради были рассмотрены как перспективное учебное пособие, которое включает в себя целевые задания и упражнения.

Ключевые слова: дидактическое средство, рабочие тетради, их структура, виды, дидактические возможности, система задач и упражнений.

RESUME

In this article the role and place of the workbook in improving the efficiency of the educational process was revealed. The structure, types and value of the workbook, which is a multifunctional didactic tool, were analyzed. Workbooks were considered as a promising educational tool, which includes target tasks and exercises.

Key words: didactic tool, workbooks, their structure, types, didactic possibilities, the system of tasks and exercises.

Teaching drawing to young creative students through graphic programs and forming their artistic thinking	
<i>Abdumajitov Avazjon Shuhrat o'gli</i>	517
Chizmachilik fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish.	
<i>Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li</i>	519
Tarix fanini o'qitishda ishchi daftarlardan foydalanish	
<i>Eshbekova Dilafruz To'ychiyevna</i>	522
Ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar	
<i>Isroilova Barno Abdulxaqovna</i>	525
Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	
<i>Nizomova Nodira Sadikjonovna</i>	527
Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda kutubxonachilarning roli	
<i>Muborak Ropiyeva</i>	528
Ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik asoslari	
<i>Xaydarov Sherzodbek Xomidovich, Adilova Marg'uba Inoyatulla qizi</i>	531
Milliy o'quv dasturining yaratilishi va uning afzalliklar	
<i>T.Avazov</i>	534
Innovatsion pedagogik ta'lim texnologiya usullarining ta'lim jarayonidagi afzalligi	
<i>Tolipov Farrux Nurbekovich</i>	537
Maktab adabiyot darslarida mumtoz adabiy matnlardagi morfemalarning anglatgan ma'nolarini o'quvchilarga tushuntirish	
<i>H.R.Nabiyev, Ibragimova Zebiniso</i>	539
Bulutli texnologiyalardan foydalanish	
<i>T.Sh.Avazov</i>	543

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya (2023-yil, 15-iyun) materiallari. Jizzax 2023. 558 bet

Manzil

Jizzax shaxar, 100130, I. Karimov shoh ko‘chasi 6-uy,
Tel: (37222) 60823 Faks: (37222) 61015
e-mail: jizzax_markaz@xtv.uz,
jiz.malakaoshirish@exat.uz

QR kod

